TOSHKENT SHAHAR YUNUSOBOD TUMAN HOKIMI
Q A R O R I

2023 - yil 10 - oktabr 237-14-206-Q/23 Yunusobod tuman hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ko‘p kvartirali uylarni boshqarishni yanada samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2023-yil 15-avgustdagi PQ-278-son qarori hamda Toshkent shahar hokimining 2023-yil 25-sentabr kunidagi 581-14-0-Q/23-sonli qarori ijrosi haqida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ko‘p kvartirali uylarni boshqarishni yanada samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2023-yil 15-avgustdagi PQ-278-son qarori hamda Toshkent shahar hokimining 2023-yil 25-sentabr kunidagi 581-14-0-Q/23-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida,

Q A R O R Q I L A M A N :

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ko‘p kvartirali uylarni boshqarishni yanada samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2023- yil 15-avgustdagi PQ-278-son qarori hamda Toshkent shahar hokimining 2023-yil 25-sentabr kunidagi 581-14-0-Q/23-sonli qarori ijro uchun qabul qilinsin va ushbu qarorga muvofiq:

chegaralari belgilangan ko‘p kvartirali uylarga tutash yer uchastkalarini ko‘p kvartirali uylardagi joylar mulkdorlariga bir oy muddatda doimiy foydalanish huquqi asosida berish to‘g‘risida qaror qabul qilish belgilanganligi;

uy-joy kommunal xo‘jaligi sohasida ko‘p kvartirali uylarni boshqarishni yanada samarali tashkil qilish yuzasidan “yo‘l xaritasi” tasdiqlanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Yunusobod tumani hokimining o‘rinbosari (D.Yusupov), Kadastr agentligi Toshkent shahar boshqarmasi tuman bo‘limi (J.Kadirov) tumanda joylashgan chegarasi belgilangan ko‘p kvartirali uylarga tutash yer uchastkalarini

ko‘p kvartirali uylardagi joylar mulkdorlariga 1-ilovaga muvofiq bir oy muddatda doimiy foydalanish huquqi asosida berilishi belgilanganligini inobatga olsin.

3. Toshkent shahar Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi boshqarmasi (S.Tuxtayev) ko‘p kvartirali uylar joylashgan va ularga tutash yer uchastkalari chegaralariga aniqlik kiritib, belgilab bersin.

4. Yunusobod tumani hokimining o‘rinbosarlari (D.Yusupov, A.Samadov), Kadastr agentligi Toshkent shahar boshqarmasi tuman bo‘limi (J.Kadirov) mazkur qaror bilan Toshkent shahar Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi boshqarmasi tomonidan belgilangan chegaralar asosida ko‘p kvartirali uylar joylashgan va ularga tutash yer uchastkalari tegishli ko‘p kvartirali uylardagi joylar mulkdorlariga doimiy foydalanish huquqida davlat ro‘yxatidan o‘tkazsin.

5. Yunusobod tumani hokimining o‘rinbosari (A.Samadov), Kadastr agentligi tuman bo‘limi (J.Kadirov) bilan birgalikda ikki oy muddatda ko‘p kvartirali uylarning boshqarish organlari foydalanishida bo‘lgan davlatga tegishli bino va inshootlarni, shuningdek, davlat ro‘yxatidan o‘tkazilmagan bino va inshootlarni xatlovdan o‘tkazsin hamda ularni Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi huzuridagi “Kommunal ta’minot markazi” davlat muassasasiga operativ boshqaruv huquqi asosida o‘tkazish bo‘yicha taklif kiritsin.

6. Yunusobod tumani hokimining o‘rinbosari (D.Yusupov), Yunusobod tumani Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi bo‘limi (M.Mirkomilov), “Maxsustrans ishlab chiqarish boshqarmasi” DUK (U.M.Ziyayev) ko‘p kvartirali uylarni boshqarish organlariga agrotexnik ishlov berishdan hosil bo‘lgan chiqindilar (daraxt va buta shox-shabbalar, barglar)ni hamda smyot maishiy chiqindilarni to‘plash punktlariga yig‘ishga ruxsat etilishi munosabati bilan qattiq maishiy chiqindilarni to‘plash va olib ketish bo‘yicha xizmatlar uchun majburiy to‘lovlar tarifini qayta ko‘rib chiqsin.

7. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish Yunusobod tumani hokimining o‘rinbosari vazifasini vaqtincha bajaruvchi A.Samadov zimmasiga yuklatilsin.

Yunusobod tuman hokimi **B.A.Abduvaliyev**

Yunusobod tuman hokimining
2023-yil 10-oktabrdagi
237-14-206-Q/23-son qaroriga
1-ilova

Yunusobod tumanida ko‘p kvartirali uylarga tutash yer uchastkalarining chegaralari belgilanishi HOLATI

T/r	Tuman nomi	Ko‘p kvartirali uylar soni	Shundan,	
			chegaralari belgilangan	Doimiy foydalanish huquqi asosida berilgan
1.	Yunusobod tumani	1 306	121	